

Metafora-Personifikatsiyaning Umumiy Nazariyasi

*Eshimova Sharofat Kenjaboyevna*¹, *Davlatova Komila Abdusattorovna*²

Annotastiya: Tilshunoslikda tilning ma'no ko'chish hodisasi metafora haqida ko'plab izlanishlar va tadqiqotlar olib boriladi. Hamda ushbu vositalar tropli derivatsiyani vujudga keltirishda asosiy va faol hisoblanadi. Tilshunos olimlarning turli xil fikrlari natijasida haligacha bir to'xtamga kelinmagan bo'lsada, asosiy vazifada u ma'no ko'chish hosisasidir hamda u uch xil turda ifodalanishi aniq aytib o'tilgan. Ushbu maqolada bu turlardan biri – personifikatsiya hodisasiga kengroq to'xtalib o'tilgan. Umumiy nazariyalarga keng urg'u berilib, bir necha misollar ham namuna sifatida keltirib izohlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: personifikatsiya, metonimiya, metafora, sema, ma'no, referent, sinesteziya, hosila ma'no, trop, derivatsiya.

Tropli derivatsiyani vujudga keltiruvchi eng faol vositalar sifatida metafora va metonimiyani qayd etish mumkin. Tilshunoslikda qayd etilishicha, metafora hosila ma'no yuzaga kelishining hosil qiluvchi va hosila ma'no referentlari o'zaro o'xshash kelishiga asoslangan ko'rinishida [1.70]. Bu izoh deyarli barcha tilshunoslar tomonidan tan olingan. Buni, differentsial – semantik usul bo'yicha tahlil etib ko'rilsa ham, yaqqol tasavvur etish mumkin. Masalan, *ulamoq* fe'li “uchlarini” “biriktirib” “bog'lamoq” sememasiga ega. U yana “uchiga” “qo'shib” “uzaytirmoq” hosila ma'noni orttirgan. Ular bildirgan harakat o'rtasida o'xshashlik bor. Ya'ni hosila ma'no yuzaga kelishi metafora hisoblanadi. Undagi hosil qiluvchi sememaning ham, hosila sememaning ham uchtdan semasi bor. Ular izohdagi bittadan so'zda ifoda topgan: hosil qiluvchi semema semalari “uchlarini” “biriktirib” “bog'lamoq” bo'lsa, hosila semema semalari “uchlarini” “qo'shib” “uzaytirmoq” dan iborat. Ulardagi (hosil qiluvchi va hosila sememalaridagi) birinchi semalar umumiy, ikkinchilari o'xshash, uchinchilari farqlidir. Hosil qiluvchi va hosila sememalarning ikkinchi semalari referentlarining o'xshash ekanligini qayd etadi.

Shunga qaramay, ayrim mutaxassislar, yuqorida keltirilganiday, “metafora – o'xshatishning qisqargan shakli” – degan izohni ilgari suradilar [2.222]. Bu fikr ham o'rni bilan to'g'ri. Masalan, o'zbek tilida tokni zararlaydigan oidium kasalligini *kul* so'zining hosila ma'nosi ifodalaydi. Uni “kulga o'xshash kasallik” o'xshatish qurilmasining qisqargan shakli deyish juda to'g'ri bo'ladi. Bu o'rinda o'xshatish sub'yekti tushib qolib, o'xshatish qurilmasining faqat *kul* etaloni butun ma'nosini o'zida saqlagan va o'xshatishning qisqargan shakli – metafora yuzaga kelgan. Ya'ni buni metaforaning ayrim ko'rinishi sifatida ko'rsatish mumkin. Lekin shunday metaforalar ham borki, ularni bu qolip bilan o'lchab bo'lmaydi. Masalan, *darvoza* so'zining o'z va hosila ma'nosi mavjud. Uning o'z leksik ma'nosi hovliga kirib chiqiladigan qurilish kompleksi bo'lsa, hosila ma'nosi futbol o'yinida to'p kiritiladigan qurilmani bildiradi. Bu o'rindagi hosila ma'noni falon o'xshatish qurilmasining qisqargan shakli deb izohlash mumkin emas. Ya'ni metaforalarni hamma vaqt ham o'lchash imkoniyati yo'q. Bu shuni ko'rsatadiki, metaforalarning o'zi ham bir mecha ko'rinishga ega. Biroq uni tasnif qilishga uncha urinilgan emas. Adabiyotlarda esa metaforalar butunlay boshqa maqsadda til hodisasi va nutq hodisasi deb ikki ko'rinishga ajratib ko'rsatiladi [1.75]. Nutq hodisasi bo'lgan metafora nazariy tilshunoslik uchun tekshirish ob'yekti bo'lmaydi. U tilshunoslikning uslubiyat bilan shug'ullanuvchi sohasiga oiddir.

¹ Koreys filologiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi, Samarqand davlat chet tillar instituti

² Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi



Til hodisasi bo'lgan metafora Yevropa tillariga oid ba'zi adabiyotlarda, yuzaga keltirgan o'xshatish belgisiga ko'ra, bir necha ko'rinishga ajratiladi [1.75]. Metaforalar bu asosda tasnif qilinsa, ular shuncha ko'p ko'rinishga ega bo'ladi, uning sanog'ini aniqlab bo'lmaydi. Shuning uchun ham mazkur asos bilan uni turli ko'rinishga ajratib ko'rsatgan adabiyotlar aniq bir xil miqdor belgilay olmanlar.

Til hodisasi sifatidagi metaforalar yuqorida qayd etilganidan tashqari asosda ko'rinishga ajratilganicha yo'q. Nutq hodisasiga oid metaforalar esa personifikatsiya, simvolizatsiya, allegoriya, sinesteziyalar berilib, ular metaforaning ko'rinishi deb qayd etilgan. Bundan tashqari unda oddiy metafora ham borligi anglashilib turibdi. Nutq hodisasiga oid metaforalarning bu ko'rinishlarini, mohiyatan qaraganda, ba'zi o'zgarishlar bilan til hodisasiga oid metaforalarga tadbiiq etsa bo'ladi. Bunda nutqning sof o'z xususiyatidan kelib chiqqan simvolizatsiya va allegoriyalarni chiqarib tashlashga to'g'ri keladi. Chunki simvolizatsiya nutq kechimidagi ellipsis bilan bog'liq sodir bo'luvchi metaforadir [4.57-61]. Allegoriya esa nutq kechimidagi qochirim va intonatsiya bilan bog'li holatda yuzaga chiqadi. Shundan kelib chiqib til hodisasi bo'lgan metaforalar oddiy metafora, personifikatsiya va sinesteziya kabi ko'rinishlarga bo'linadi. Metaforaning oddiy metafora, personifikatsiya va sinesteziya degan ko'rinishlari hosil qiluvchi va hosila ma'no referentlarining o'zaro o'xshatilish holatiga qarab belgilanadi. Quyida ularning har biriga alohida to'xtashga to'g'ri keladi.

Metafora va ularning turlari. *Oddiy metafora* hosila ma'no yuzaga kelishining hosil qiluvchi va hosila ma'no referentlarining o'zaro belgi, xususiyatlari oddiy qiyoslanishi, o'xshatilishiga asoslangan ko'rinishidir. Masalan, *darvoza* so'zining leksik ma'nosi "hovliga kirib chiqiladigan qurilish kompleksi" ni ifoda etar edi. Futbol o'yinida "to'p kiritiladigan qurilish" ham bor bo'lib, bu u qurilishga sirtqi ko'rinishi va vazifasi jihatdan o'xshash. Mana shu o'xshashlikka asoslanib futbolga oid qurilma ham *darvoza* so'zi bilan atalgan. Natijada, *darvoza* so'zi mana shu atash hisobiga hosila ma'noni yuzaga keltirgan. Ya'ni: ... *to'p darvozaning yuqori to'siniga tegib, maydonga qaytdi* ("Toshkent haqiqati"). Bu o'rindagi referentlarning o'xshatilish belgi va vazifalarning bevosita qiyoslanishiga asoslangan.

Oddiy metaforalar ot turkumidan boshqa turkumdagi so'zlarda ham sodir bo'ladi. Masalan, *bosh otining* "sabzavotning" "iste'mol qilinadigan" "yumaloq o'rami" hosila ma'nosi shakliy o'xshashlikka asoslanib yuzaga kelgan. Ya'ni: *Topgan qo'y keltirar, topmagan bir bosh piyoz* (maqol).

Personifikatsiya metaforaning hosil qiluvchi ma'noning jonli referenti bilan hosila ma'noning jonsiz referenti o'rtasidagi qiyosga, o'xshashlikka asoslangan ko'rinishidir [5.286]. Metaforaning bu ko'rinishida ham so'zning leksik ma'no referenti hosila ma'no referenti bilan sirtqi belgi, harakat yoki holat xususiyati vazifasi kabilar doirasida o'xshash bo'laveradi. Ammo bu o'xshashlik hosila ma'no referentiga jonli holat baxsh etish orqali yuzaga chiqadi. Mana shu xususiyat personifikatsiya uchun asosdir. Masalan, *dam* so'zi "nafas" leksik ma'nosiga ega edi. Shu ma'nodan "taft" hosila ma'nosi yuzaga keldi. Ya'ni: *Quyosh damini g'ir-g'ir esgan shamol kesar edi* (Oybek). Bu gapdagi *dam* so'zi "quyosh tafti harorati" hosila ma'nosi bilan voqelangan. Bu o'rinda oddiy qizdiruvchi haroratga jonli harakat baxsh etilib, purkalayotgan issiqqa o'xshatilgan. Bunga uni nafasga qiyoslash orqali erishilgan. Koreys tilidagi "웃음은 인간이 기쁘거나 즐거울 때, 혹은 특별한 감정이 들 때에 얼굴 근육을 움직여 일정한 표정을 짓는 반응을 일컫는 말이다 (Kulgu insonlar xursand bo'lganda yoki zavqlanganda, yoki o'ziga xos hissiyotlarga tushganda yuz mushaklarini harakatlantirib ma'lum bir yuz ifodasini quradigan reaksiyani qo'zg'aganda ishlatiladigan so'zdir)" jumlasidagi 표정을 짓는 반응을 일컫는 birikmasida ham shunday holni kuzatish mumkin [6.126]. Shunday qilib, personifikatsiyalarda hosila ma'no referenti jonsiz bo'lgani holda, hosil qiluvchi ma'noning jonli referentiga qiyoslanib, unga jonli ko'rinish baxsh etiladi.

Sinesteziya metaforaning shunday bir ko'rinishiki, unda hosila ma'noning ma'lum sezgi bilan qabul qilingan referenti hosil qiluvchi ma'noning boshqa sezgi bilan qabul qilingan referentiga qiyoslangan, o'xshatilgan bo'ladi [8.279]. Referentlar tamoman boshqa-boshqa sezgi bilan qabul qilinsa ham, ular xususiyati kishi ongida umumlashtiriladi va bir xil tasavvur etiladi. Aslida bu o'xshatilgan referentlar



hech qanday o'xshashlikka ham, hech qanday umumiylikka ham ega emas. Masalan, *mayin* so'zining genetik ma'nosi tola yoki u bilan bog'li buyumning belgisini ifoda etadi. Bu so'zning hosila ma'nosi ovoznining ohista va yoqimli belgisini ifodalaydi. Bunda hosil qiluvchi va hosila ma'no referentlarining umuman sezgiga ta'sir etish xususiyatlari o'zaro o'xshatilgan va shunga ko'ra hosila ma'no yuzaga keltirilgan, sinesteziya sodir bo'lgan. Xuddi shunday ko'chimni koreyscha quyidagi jumla misolida qayd etish mumkin: 향기가 나는 여자, 느낌이 좋은 남자, 항상 공부하고 자신을 연마하는 지성적인 사람, 자유로운 영혼을 가진 감성이 풍부한 사람, 소박하고 겸손하고 마음이 따뜻한 사람, 이런 식으로 사람들은 누구나 되고 싶어 하는 자신의 모습을 갖고 있다. (Ifor taratayotgan ayol, hissiyotlari yaxshi erkak, doimo o'qib o'z ustida ishlaydigan kishi, erkin ruhga ega sezgilarga boy kishi, sodda qalbli kamtar va qalbi iliq odam, mana shunday odamlar kim bo'lishni xohlasa o'sha ko'rinishga ega bo'ladi)

Sinesteziya sifat turkumidan boshqa turkumlardagi so'zlarda ham sodir bo'ladi. Masalan, ot turkumiga oid *iz*, fe'l turkumiga oid *ilmoq*, ravish turkumiga oid *baralla* so'zlaridagi hosila ma'no yuzaga kelishini ko'rsatish mumkin. *Iz* so'zi "transport yo'l qurilmasi" leksik ma'nosiga ega. U ko'rib seziladi. Bunga idrok qilib seziladigan tushuncha iyoslangan. Ular ongdagi harakat yo'nalishi bo'yicha o'xshash. *Men xohlar edimki, tarqoq harakat bir izga tushsa*. Yoki, *자기를 방전시키고 싶다면 최소한 하루에 30분씩 운동을 하고, 일주일에 한 번은 일기를 쓰고, 한 달에 한 권은 책을 읽고, 계절에 한 번 씩은 자연과 벗하고, 일 년에 한 번은 혼자 여행을 해라*. (O'zingni rivojlantirmoqchi bo'lsang kamida bir kunda yarim soatlar sport bilan shug'ullan, bir haftada bir bor kundalik yoz, bir oyda bitta kitobni o'qi, har bir faslda bir martadan tabiat bilan hamnafas bo'l, bir yilda bir marta yolg'iz sayohatga chiq).

Shunday qilib sinesteziyada hosila ma'noning ma'lum bir sezgi bilan referentini hosil qiluvchi ma'noning boshqa sezgi bilan his etilgan referentiga qiyoslash, o'xshatish orqali yuzaga keltiriladi. Qiyos referent belgilarining ongdagi umumlashmasiga asoslanadi.

Oddiy metafora referentlarning oddiy qiyosi, o'xshashligiga asoslansa, personifikatsiya jonsiz referentning jonli referentiga o'xshatilishiga; sinesteziya bir sezgida his qilingan referentni boshqa sezgi bilan his qilingan referentga belgilarini ongdagi umumlashtirib qiyoslanishiga, o'xshatilishiga asoslanadi.

Ma'lumki, personifikatsiya haqida stilistika va leksikologiya bo'yicha har bir boshlang'ich darsliklarda eslatib o'tiladi. Biroq, ushbu kontseptsyaning aniq va ravshan ta'rifi hali mavjud emas.

Stilistikada personifikatsiya troplar tizimiga tegishli. Bundan tashqari A.S.Lebedevskiy to'g'ri ta'kidlaganidek, "bu badiiy qayta fikrlashning umumiy usuli bo'lib, ehtimol u haqida gapirish qoidaga ko'ra juda oddiy bo'lib, faqat qisqacha ta'rif va illyustratsiya sifatida bir nechta misollar bilan cheklangan hisoblanadi" [9.61] Lekin, hatto personifikatsiyani ta'riflashda ham sezilarli farqlar namoyon bo'ladi.

Ba'zi tadqiqotchilar hatto uni tropli tizimdan chiqarib tashlashadi. Masalan, lingvistik entsiklopedik lug'atda [ЛЭС 2002: 709] personifikatsiya haqida izoh yo'q. "Tilshunoslik. Rus tili" entsiklopediyasida "Dunyoning insoniylashishi" degan qayd bor, unda bizni o'rab turgan muhitning inson xususiyatlari bilan atalganligi haqida gap ketadi: "qattiq sovuq", "befarq tabiat" kabi misollar bilan, lekin ular metaforadek izohlanadi. [10.65]. Lekin, shuni ta'kidlash kerakki, personifikatsiya hodisasi doimo mavjud bo'lgan va tadqiqot uchun e'tibor jalb qiluvchi hodisa bo'lib qoladi. Personifikatsiya bo'yicha qiziq fikrlarni biz А.И. Ефимов, А.И. Гвоздев, В.В. Виноградова, Л.В. Щерб, А.С.Ярнатовская, А.Р.Исаакян, С.К. Константинова va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida uchratamiz.

Personifikatsiyaning aniq ta'rifini ishlab chiqish atamalarning butun boshli paradigmasining mavjudligi qiyinlashtiradi (ramzlashtirish, prozopopeya, antropomorfik metafora, jonlantirish, allegoriya). Bu ko'pincha atamashunoslikdagi chalkashliklar va bunda tropni aniqlashdagi qarama-



qarshiliklarga olib keladi. Shuni darhol ta'kidlash kerakki, personifikatsiya va ramzlashtirish atamasi biz uchun sinonimlar hisoblanadi va turli xil leksikografik manbalarda ushbu hodisalarning shu kabi bir-biriga o'xshash ta'riflari keltiriladi [16.677].

Personifikatsiyaning mavjud talqinlarining batafsil tahlilini S.Yu.Voskresenskaya olib borgan. Muallif shunday xulosaga keladi: "Ko'pchilik manbalar personifikatsiyani metaforaning bir turi deb beradi, lekin personifikatsiyaning allegoriya sifatidagi talqinlari ham uchraydi. Bundan tashqari, ba'zi ta'riflarda personifikatsiya trop deb ataladi, boshqalarida esa figura sifatida keltiriladi. Bir necha manbalarda personifikatsiya umumiy nomlanadi: "badiiy qurilma", yoki "atama". Alohida mualliflar shunchaki "jonlantirish", "tasvirlash", "allegoriya" deb yozishadi. Shunday qilib, aytish mumkinki, personifikatsiya – bu faol o'rganiladigan, lekin hali oxirigacha to'liq o'rganilmagan hodisadir [11.23]

Personifikatsiya atamasini tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, ba'zi lingvistlar boshqalariga qaraganda personifikatsiyani kengroq talqin qilishadi. Kenglik tushunchasi bu yerda metaforizatsiyalashgan tushunchalarning miqdori sifatida emas, personifikatsiyalashgan denotatning oxirgi sferadagi transpozitsiyasi tushuniladi: kengroq holda – jonli mavjudotlar umuman, torroq holda esa – insonlarning antropomorf sferasi [12.160]. Shu tarzda, personifikatsiya atamasi denotat/jonlantiruvchi belgilar mezoni bo'yicha farqlanadi.

Ya'ni, O.S.Axmanovada jonlantirish jonli predmetlarning belgilari jonsiz narsalarga ko'chishi sifatida talqin qilinadi, lekin jonli predmetlarning tarkibiy qismida birinchi navbatda insonga xos belgilar nazarda tutiladi: "insonlarga xos bo'lgan nutq, muloqotga kirisha olish qobiliyati". [5.286]. "Adabiy atamalar lug'ati" personifikatsiya haqida tor tushuncha beradi va bunda faqat jonli mavjudotlarga xos bo'lgan xususiyatlar tushuniladi: "jonlantirish – jonsiz yoki mavhum predmetlarning shunday tasviriki unda ular jonli mavjudotlarga xos xususiyatlar – nutq, fikrlay olish va his qila olish qobiliyati bilan ta'minlanadi" [Adabiy atamalar lug'ati 1974: 252]. Zamonaviy she'riyatning milliy ko'rinishi ham personifikatsiyaning tor talqinini beradi: "Jonlantirish, allegoriya kabi, metaforaga asoslanadi. Metaforada jonli ob'yektning xususiyatlari jonsiz predmetga o'tadi. Biz jonsiz predmetga jonli mavjudotning xususiyatlarini o'tkazayotganda predmetni jonlantiramiz deb aytishimiz mumkin. Tirik mavjudotning to'liq tasvirini jonsiz narsaga o'tkazish xabari jonlantirish deb ataladi. Jonlantirishga misol keltirib o'tsak: Hayqiraman tog'lar bag'ridan gumburlagan sado keladi, ona yerning otash qa'ridan o'g'lim degan nido keladi. [Erkin Vohidov she'rlar to'plami].

Barcha mualliflar ham til hodisalarini talqin qilishda izchil emas. A.S.Lebedevskiy ta'kidlaganidek, personifikatsiyani tasvirlash ba'zan ta'riflarga zid keladi. Muallif D.E. Rozentalyaning ta'rifni keltiradi va u keltirgan misol personifikatsiyaning "tor" talqini hamda uning tasviri o'rtasidagi nomuvofiqlikni ko'rsatadi: "Shunday qilib D.E. Rozentalyaning rus tili amaliy stilistikasida biz shunday deb o'qiymiz: "Insonga taqlid qilish –bu inson xususiyatlarini jonsiz predmetlarga va mavhum tushunchalarga o'tkazishdan iborat trop". Quyida misollar keltirib o'tiladi: "정신적 쇠신을 위해서는 그 무엇보다도 정기적인 자기반성을 행해라. 그러면 인격도 지성도 우리를 비껴가지 않는다." Tarjimasi: "Ruhiy yangilanish uchun avvalo doimo o'z-o'zingni tahlil qil. O'shandagina fe'l-atvor ham samimiylik ham bizni chetlab o'tib ketmaydi." Bu misolda fe'l-atvor va samimiylik xuddi shamol yoki biror-bir hayvondek insonning yonidan o'tib ketgandek jonlantirilgan. Samimiylik va fe'l-atvor tushuncha sifatida shaxsga bog'liq bo'lishi mumkin, izohlanadi [13.19]

Aksariyat koreys manbalari personifikatsiyani insonlar bilan muloqot qilish orqali belgilaydi. Ya'ni, jonlantirmoqchi bo'lgan ob'yektning turli xil holatlarda ifodalash orqali insonning o'zida paydo bo'ladigan ruhiy holati aks etgan bo'ladi bu kitobxonning his-tuyg'ularini o'zgartirib uni hissiyotlarga ko'madi. Personifikatsiyaning tarixi afsona yoki hikoyalar, ertak kabi har xil usullarda bir-biriga bog'lanib ketgan. Insoniyat hayvon obrazi orqali jonlantirayotgan ob'yektning ilohiylashtirib sehrli mavjudotga aylantiradi yoki samarali tasvir orqali individuallik va yaqinlikni his qila olishi uchun nazariy jihatdan ifodalab kelgan. Yana din, tarix, san'at orqali insonning xohish-istagi va jamiyat fikrining ramzini ifodalaydi [7.146].



Mesopotamiya yoki qadimiy Misr san'atidagi hayvon obrazini jonlantiradigan sehrli istak va talablarini tasvirlash orqali o'sha davrdagi fikri va hayot tarzini aniqlashtirib beradigan ramz hisoblanadi. Shu kabi hayvon haqida biror bir ramzni ifodalashga "xarakterni ko'rsatib beradigan (anthropomorphism)" harakat deb aytiladi [15.356]. Oxir-oqibat, qaysidir bir ob'yektga insonga xos bo'lgan so'z va harakatlarni berish – bu ob'yektni qayta ishlab chiqarish bo'lib, bu jarayon qadimgi diniy qarashlarni yuzaga keltirgan deb hisoblash mumkin. Asosan boshqa narsalardan ko'ra hayvonlarning jonlantirilib ramziy ma'noda ifodalangan misollarning ko'pligiga sabab inson bilan hayvonlarning hayotini e'tibor bilan kuzatish orqali hayvonlarning shaklidan insonlarning ko'rinishini kashf etganliklaridir. Insonlar bilan hayvonlar his qilib turgan tuyg'ular ichki xususiyatga xos va instinktli harakat yoki yuz ifodasi orqali aks etilishi jihatidan o'zaro o'xshashligini bilish mumkin [14.81].

Ba'zi misollardan esa bu trop keng tushuniladi degan xulosaga kelamiz. Bu A.R.Isaakyanning so'zlari bo'yicha shunday tushuntiriladi: "insonlar, shu bilan birga boshqa tirik jonzotlar uchun ham umumiy bo'lgan tushunchani beradigan juda ko'p miqdordagi so'zlar mavjud. Bu, birinchidan, idrok fe'llari "ko'rmoq - 보다, eshitmoq - 듣다, his qilmoq - 느끼다" va boshqalar, harakat "bormoq - 가다, kelmoq - 오다, yurmoq - 걷다, sakramoq - 뛰다, tirmashmoq - 기어오르다", tovush "baqirmoq - 소리치다, kuylamoq - 부르다, uvillamoq - 짓다", xavotirlanish "jahli chiqmoq – 화가 나다, tinchlanmoq - 진정하다, xavotirlanmoq - 걱정하다", "nafas olmoq – 숨을 쉬다, uxlamog – 잠을 자다, tishlamog - 물다, urmog - 때리다, o'lmoq - 죽다" fe'llari va boshqalardir. Bunga barcha tirik mavjudotlar uchun umumiy bo'lgan belgilarni bildiruvchi sifatlar: "aqlli - 똑똑하다, axmog - 멍청하다, ayyor - 교활하다, uddaburon - 간사하다, xipchabel – 가는 허리, semiz - 뚱뚱하다" va hokazolar, shu bilan birga tana qismlarini ifodalovchi otlar ham taalluqli: "bosh - 머리, ko'z - 눈, quloq - 귀, til - 혀, tish 이". Agar personifikatsiya yuqorida aytib o'tilgan so'zlar sinfidagi jonsiz olamning hodisalari va predmetini bildiruvchi so'zlarniing birikishi natijasida yuzaga kelgan bo'lsa va bunda qo'shimcha ma'lumotlar keltirilmagan bo'lsa jonlantirishda transpozitsiya sodir bo'lganligini aniqlash mumkin bo'lmaydi. [12.6]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – С. 70, 75
2. Томашевский Б.В. Стилистика я стихосложения. – М. 1952. С 222
3. Rayevska N. English lexicologie. - Киев. 1961, P. 103-110
4. Mirtojdiyev M.M. Ellipsis va ko'chma ma'nolar // O'zbek tili va adabiyoti. – 1973. 1-son. 57-61-b.
5. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – 1969 С. 286. 608 с
6. 한국어 9, 모스크바 1086 학교 한국어 교재 편집부, 대한민국 서울특별시 교육청 2002. 126 b
7. Эшимова, Ш. К. (2022). PERSONIFIKATSIYA ORQALI OBRAZNING YARATILISHI. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 5(4).
8. Ульман Ст. Семантические универсалий // Новое в лингвистике. М.: Наука. 1970. С. 279
9. Лебедевский А.С. Персонификация и способы ее выражения. Сб. «Вопросы германской филологии», Калинин, 1975, вып. 2, с.61-69.
10. Аксенова М. Энциклопедия для детей. Т.10. Языкознание. Русский язык. – М.: Аванта, 2005, - 65, 700 с
11. Воскресенская С.Ю. Гендерные стереотипы лексико-грамматической персонификации. Автореферат канд. дис. к-та фил. наук. - Тверь, 2007. -



12. Исаакян А.Р. Грамматические средства персонификации и деперсонификации в современном немецком языке: Дисс... канд.филол.наук.-М., МГПУ им.Мориса Тереза, 1978. – 6, 160 с
13. 연세 한국어, ‘향기 나는 여자, 느낌이 좋은 남자’. 서울 - 2010
14. Эшимова Ш. 2020. Особенности метафоры тропинимического происхождения. Иностранная филология: язык, литература, образование. 2 (75) (апр. 2020), 81–86.
15. Eshimova, S. K. (2022). KOREYS BADIY ADABIYOTIDA PERSONIFIKATSIYANING IFODALANISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 24), 356-364.
16. Kenjaboevna, S. E., & Ugli, K. M. S. (2021). The phenomenon of personalization in korean (on the example of fairy tales). ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(6), 677-681.

